

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Etkazib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashi filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishligan muddatda oldindan 100% amalga oshirilganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganida yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Etkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft mahsulotlarini shuningdek «Iste'molchi»tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraqa olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standartlari talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Etkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotransportlar («Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xohlatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Etkazib beruvchi»ning yoki uning bo'yimlari tomonidan amalga oshirilgan yor'iy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tang'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi zilzilish holatlarida «Etkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuridqonmalar xamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Etkazib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashi filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchomoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Eganik xuquq, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Etkazib beruvchi»ombori yoki filiali xududdan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi»ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarida qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifati, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladi.

6.2. «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtda yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifati o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sabablar bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yori to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birtartasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (faqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo'lganligini isbotlansa, javobgar bo'lmaydi.

8. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH VA BOSHQA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va da bermaydi, to'lamachilik qilmaydi, pora sifarda pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rtilishiga kafolat beradi.